

## JANUB ADABIYOTIDA “AMERIKA” OBRAZINI O‘RGANISHGA DOIR NAZARIY YONDASHUVLAR

**Umrzaqov Islomjon Isroilovich,**

*Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti dotsenti,*

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*E-mail: [islomumrzakov0101@gmail.com](mailto:islomumrzakov0101@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Amerika Qo'shma Shtatlarining janubiy hududlaridagi adabiyotida shakllangan “Amerika” milliy obrazining tadqiqiy muammosi tarixiy-adabiy jarayon sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda janubga xos adabiy-intellektual an'anada “Amerika” konsepsiyasining o'ziga xos chegaraviy tabiati, uning badiiy matnlarda qurilish mexanizmlari va evolyutsion bosqichlari yoritiladi. Maqolada imagologiya, mifokritika va postkolonial tadqiqotlar metodologik asos sifatida qo'llanilgan. Natijalarda Janub Renessansi davridan hozirgi kungacha kechgan ilmiy refleksiyaning to'rt bosqichi apologetik, formalistik-akademik, madaniyatshunoslik va dekonstruktiv bosqichlar atroflicha tahlil etiladi. Adabiy tahlilda Uilyam Folkner, Allen Teyt, Robert Penn Uorren, Flanneri O'Konnor kabi yozuvchilarning asarlaridan olingan parchalar vositasida “Amerika” obrazining badiiy evolyutsiyasi va uning fobiya, filiya hamda utopiya elementlarini uyg'unlashtirgan gibril tabiati ochib berilgan. Maqola janub adabiyotidagi “Amerika” obrazini bir millat ichidagi “ichki o'zga” muammosi sifatida qayta konseptuallashtirish zarurligini asoslaydi.

**Kalit so'zlar:** Janub adabiyoti, Amerika obrazi, imagologiya, mifokritika, postkolonializm, Janub Renessansi, milliy o'zlik, geterostereotip, avtostereotip.

**Аннотация.** В данной статье проблема формирования национального образа «Америки» в литературе южных регионов Соединённых Штатов Америки исследуется как историко-литературный процесс. В работе освещаются специфическая пограничная природа концепции «Америки» в южной литературно-интеллектуальной традиции, механизмы её конструирования в художественных текстах и эволюционные этапы. В качестве методологической основы статьи используются имагология, мифокритика и постколониальные исследования. В результатах подробно анализируются четыре этапа научной рефлексии от эпохи Южного Ренессанса до наших дней: апологетический, формалистически-академический, культурологический и деконструктивный. В ходе литературного анализа на примере фрагментов произведений таких писателей, как Уильям Фолкнер, Аллен Тейт, Роберт Пенн Уоррен, Фланнери О'Коннор, раскрываются художественная эволюция образа «Америки» и его гибридная природа, объединяющая элементы фобии, филии и утопии. Статья обосновывает необходимость переконцептуализации образа «Америки» в литературе Юга как проблемы «внутреннего Другого» в рамках единой нации.

**Ключевые слова:** литература Юга, образ Америки, имагология, мифокритика, постколониализм, Южный Ренессанс, национальная идентичность, гетеростереотип, автостереотип.

**Abstract.** This article examines the problem of the formation of the national image of "America" in the literature of the southern regions of the United States as a historical and literary process. The study highlights the specific border nature of the concept of "America" within the Southern literary-intellectual tradition, the mechanisms of its construction in literary texts, and its evolutionary stages. The article employs imagology, myth criticism, and postcolonial studies as its methodological framework. The results provide a detailed analysis of four stages of scholarly reflection from the period of the Southern Renaissance to the present day: the apologetic, formalistic-academic, cultural studies, and deconstructive stages. Through literary analysis of excerpts from works by such writers as William Faulkner, Allen Tate, Robert Penn Warren, and Flannery O'Connor, the article reveals the artistic evolution of the image of "America" and its hybrid nature, which combines elements of phobia, philia, and utopia. The article substantiates the need to reconceptualize the image of "America" in Southern literature as a problem of the "internal Other" within a single nation.

*Key words: Southern literature, image of America, imagology, myth criticism, postcolonialism, Southern Renaissance, national identity, heterostereotype, autostereotype.*

**Kirish va dolzarbligi.** Janub adabiyotida “Amerika” obrazining tadqiqiy muammosi bir necha ilmiy an’analar kesishmasida bosqichma-bosqich shakllanib, XX asrning ikkinchi yarmidagina mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida e’tirof etilgan mavzulardan hisoblanadi. Mazkur muammoning genezisi Amerika regionalistikasining akademik fan darajasiga ko‘tarilishi, Janub Renessansi davrining ilmiy o‘rganish obyekti sifatida tizimga aylanishi, hamda amerikanistikada qiyosiy-tarixiy va madaniyatshunoslik yondashuvlarining tizimli ravishda qaror topishi kabi uchta o‘zaro bog‘liq tarixiy-adabiy jarayon bilan belgilanadi

Ushbu mavzuning dolzarbligi ikki jihat bilan belgilanadi. Birinchidan, Amerika Qo‘shma Shtatlari kabi yaxlit milliy davlat ichida ichki madaniy-mintaqaviy “o‘zga”ni idrok etish fenomeni imagologiya faniga yangi nazariy talablarni qo‘yadi. Ikkinchidan, o‘zbek amerikashunosligida janub adabiyotidagi Amerika obrazi va gender masalalari kabi muammolar asosan alohida yozuvchilar ijodini o‘rganish doirasida ko‘rib chiqilgan bo‘lib, tizimli yoki umumiy nazariy yondashuv kam qo‘llanilgan. Janub adabiyotida Amerikaning milliy obrazi qanday ifodalanganligi masalasi tizimli ilmiy muammo sifatida o‘zbek adabiyotshunosligida hech qachon maxsus va mustaqil o‘rganilmagan. Aynan shu ilmiy bo‘shliq ushbu tadqiqotning dolzarbligini yanada kuchaytiradi. Maqolaning maqsadi – janub adabiyotida “Amerika” milliy obrazining tadqiq etilish tarixini davrlashtirish, bu obrazning badiiy qurilish mexanizmlarini imagologik, mifokritik va postkolonial yondashuvlar asosida yoritish va xulosalarni aniq adabiy matnlar tahlili bilan mustahkamlashdan iborat.

**Metodlar va o‘rganilish darajasi.** Tadqiqot materialini AQSH janubiy o‘lkalari adabiyotining 1920-yillardan 2000-yillargacha bo‘lgan davrdagi yozma merosi – Vanderbilt agrar manifestlari, Donald Devidson, Allen Teyt, Robert Penn Uorren, Klint Bruks, Uilyam Folkner, Flanneri O‘Konnor, Yudora Uelti, Zora Nial Xyorston kabi mualliflarning asarlari, shuningdek, Lyuis Simpson, Richard King, Fred Hobson, Maykl Kreyling, Patrisiya Yaeger kabi tadqiqotchilarning fundamental monografiyalari tashkil etadi. Metodologik asos uchta o‘zaro to‘ldiruvchi paradigma asosida qurilgan. Birinchi paradigma imagologik yondashuv. Fransuz qiyosiy adabiyotshunosi Daniel-Anri Pajo imagologiyani “matn ichida va matn orqali tug‘ilgan o‘zga obrazini o‘rganuvchi soha” deb belgilaydi. Pajoning ta’kidlashicha, bu obraz bir vaqtning o‘zida muallifning madaniy o‘zligini ifodalovchi belgi va ramz vazifasini o‘taydi [12, C.133]. Pajo madaniyatning “o‘zga”ga munosabatini ifodalovchi uch tipologik modelni – fobiya (qo‘rquv va rad etish), filiya (ijobiy qiziqish) va utopiya (o‘z istaklarining proyeksiyasi)ni taklif etgan [11, C.154]. Manfred Beller va Yop Lirsen esa imagologiyaning markaziy kategoriyalarini – geterostereotip (boshqa madaniyat haqidagi tasavvurlar) va avtostereotip (o‘z madaniy o‘zligi haqidagi qarashlar) tushunchalarini tizimlashtirgan. Lirsenning ta’kidlashicha,

milliy obrazlar hech qachon mavjud real voqelikning oddiy aksi bo'lmay, balki takroriy tiplashtirish va narrativ kodlash orqali voqelikni quruvchi konstruksiyalardir [1, C.496].

Ikkinchi paradigma mifokritik yondashuv bo'lib, u badiiy matnlardagi chuqur mifologik tuzilmalar, kollektiv ongda arxetiplar va boshqaruvchi narrativ qoliplarni aniqlashga qaratilgan. Janub adabiyotida "Amerika" obrazining asosida "yo'qotilgan jannat", "oltin asr", "qahramon va ajdaho" kabi universal mifologik modellar yotadi.

Uchinchi paradigm postkolonial tadqiqotlar bo'lib, u madaniy obrazlar yaratish jarayonidagi hokimiyat munosabatlari, gegemonlik va qarshilik dialektikasini ochib beradi. Janubning Fuqarolar urushidagi mag'lubiyati, qayta qurish davridagi marginallasuvi va iqtisodiy qaramligi uni "ichki mustamlaka" sifatida talqin qilishga asos bo'lgan.

Janub adabiy konteksti o'zining noyob xususiyati bilan ajralib turadi: bunda obrazning yaratuvchisi, ya'ni Janub mintaqasi va obrazning obyekt, ya'ni Amerika bir xil milliy davlat chegaralari ichida joylashgan. Ushbu holat imagologiyaning odatdagi qo'llanish doirasidan keskin farq qiladi. An'anaviy imagologik tadqiqotlar asosan millatlararo munosabatlarni o'rgansa, janubiy hududlar doirasida bir millat ichidagi obrazlar dinamikasi yuzaga chiqadi. Shu bois janubiy imagologiyani millatlararo obrazlar dinamikasi emas, balki bir millat ichidagi obrazlar dinamikasi sifatida qayta konseptualashtirish zarurati vujudga keladi.

### **Tadqiqot natijalari.**

1. Apologetik bosqich: agrar maktab va obrazning dastlabki qurilishi (1920–1940-yillar). Janubning adabiy o'ziga xosligini "amerikacha" asosiy adabiy oqimiga nisbatan ilk bor tizimli anglashga urinishlar Ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davr, ya'ni Janub Renessansi davri doirasida amalga oshirilgan. Ayni jihat e'tiborga loyiqki, Janub va uning adabiy merosiga oid ilmiy refleksiya ushbu adabiy hodisaning o'zi bilan deyarli sinxron tarzda vujudga kelgan. Vanderbilt universitetidagi o'n ikki nafar "agrar maktab" vakillari tomonidan yozilgan "Men o'z qarashlarimda qatiyman" (1930) nomli jamoaviy manifest ikki xil vazifani bajaradi: birinchidan, u adabiy dastur, ikkinchidan, janublik ziyolilarning o'zligini madaniy jihatdan anglash bo'yicha ilk tizimli tajribadir. Ushbu to'planning kirish so'zida agrar maktab namoyandalari kelgusidagi barcha bahs-munozaralar uchun markaziy o'rin tutadigan bir qarama-qarshilikni ilgari suradilar, ya'ni tabiiy va yaxlit agrar sivilizatsiya sifatidagi Janub "amerikacha" sanoatlashtirish usuliga qarshi turadi, chunki bu sanoatlashtirish inson qadr-qimmatini yo'qotuvchi taraqqiyot timsolidir [16, C.359].

Donald Devidson o'zining 1938-yilda yozilgan "Leviatanga hujum" nomli maqolasida mintaqa haqidagi quyidagi qarashni ilgari suradi: mintaqa – bu "madaniyatning tirik organizmi" bo'lib, u milliy davlatning hamma narsani bir xil qilishga intiluvchi hokimiyatiga qarshi turadi. Devidsonning ta'kidlashicha, janubliklar idrokidagi "Amerika" aslida g'alaba qozongan Shimol tomonidan majburan qabul qildirilgan mavhum tushunchadir. Uning nazarida, bu Amerika haqiqiy millat emas, balki

shimolliklarning siyosiy va iqtisodiy hukmronligini oqlash uchun yaratilgan mafkuraviy tuzilma hisoblanadi [3, C.368]. Devidson davlat mexanizmini Injildagi Leviatan maxluqi bilan qiyoslab, shunday yozadi: “Markaziy hukumatning har bir yangi qonuni janubiy jamoaning o‘zini o‘zi boshqarish huquqiga qaratilgan bolta zarbasidir. Ular bizga o‘z kelajagimizni qurish uchun emas, o‘z tariximizni ko‘mish uchun yordam bermoqchi” [3, C.84].

Allen Teyt adabiy tanqidchi va shoir sifatida xuddi shu masalaga o‘zining 1936-yilda nashr etilgan “Konservativ she’riyat va g‘oyalar haqidagi maqolalar” to‘plamida o‘z munosabatini bildiradi. Unda Teyt janublik yozuvchiga xos “qo‘sh istiqbol” konsepsiyasini ilmiy jihatdan asoslaydi: u bir tomondan o‘z milliy (janubiy) adabiy an‘anasini ichkaridan, bevosita tuyg‘u va tushuncha bilan anglaydi, ikkinchi tomondan esa “amerikacha” asosiy adabiy oqimini tashqaridan, ma’lum bir masofa va tanqidiy nuqtai nazardan kuzatadi. Teyt bu xususiyatni “tarixiy onglilik” deb ataydi va aynan mana shu xususiyat janub adabiyotini shimol adabiyotidan farqlantiradi. Teytning ta’kidlashicha, shimol adabiyotida muayyan joy va vaqt tajribasiga asoslangan chuqur ildiz, ya’ni an’ana, yer bilan bog‘liqlik, tarixiy xotira mavjud emas [15, C.240].

Ushbu bosqichda “masalaning tarixiy rivoji” asosan ikki xil xususiyatga ega: apologetik (oqlovchi) va dasturiy (muayyan qarashni targ‘ib qiluvchi). Janub ziyolilari o‘z adabiyotidagi “Amerika” timsoliga xolis ilmiy mezonlar asosida yondashish o‘rniga, ushbu obrazni sun‘iy tarzda bunyod etish va uni g‘oyaviy jihatdan qonuniylashtirish bilan shug‘ullanganlar. Shunday bo‘lsa-da, aynan shu davrdagina keyingi tadqiqotlar uchun asos bo‘ladigan bir qator asosiy tushuncha va qarama-qarshiliklar shakllanadi: tabiat / mashina – tabiiy hayot texnik va sun‘iy tuzilmaga qarshi; an’ana / taraqqiyot – eski, avloddan-avlodga o‘tgan qadriyatlar yangilik va o‘zgarishga qarshi; joy / mavhumlik – muayyan geografik va madaniy makon umumiyashtirilgan tushunchaga qarshi.

2. Formalistik-akademik bosqich: “Yangi tanqid” va obrazning institutsionalizatsiyasi (1940–1960-yillar). “Yangi tanqid” maktabining Amerika adabiyotshunosligida yetakchi mavqega ega bo‘lishi janub mutafakkirlarining bevosita ta’siri ostida kechdi, zero bu oqimning negizida aynan Teyt, Rensom va Uorren turardi. Mazkur intellektual meros janub adabiyotidagi “Amerika” konsepsiyasini tadqiq etishda ikki yoqlama vaziyatni yuzaga keltirdi: janub yozuvchilarining asarlari mislsiz darajada ilmiy muomalaga jalb etilgan bo‘lsa-da, kontekstdan ataylab chetlashuvchi “sinchiklab o‘qish” tamoyilining mutlaq hukmronligi uzoq vaqt davomida aynan madaniy o‘ziga xoslik va “Amerika” obrazi singari masalalarning xolisona tahlil qilinishiga jiddiy to‘siq bo‘ldi.

Klint Bruksning 1963-yilda nashr etilgan “Uilyam Folkner: Yoknapatofa mamlakati” nomli fundamental monografiyasi Folkner badiiy olamiga bag‘ishlangan dastlabki yirik akademik ish bo‘lib, unda muallif bilvosita biz tadqiq etayotgan masalaga ham to‘xtalib o‘tadi. Bruks talqinida Folkner Amerika sivilizatsiyasiga xos “mavhum ratsionalizm”ga muxolif turgan “janub gumanizmi”ning yirik vakili sifatida namoyon bo‘ladi [2, C.499].

Masalan, “Absalom, Absalom!” romanida Tomas Satpenning Shimol muhandisligi prinsiplari asosida Janubda imperiya qurishga urinishi va uning fojiali qulashi aynan shu ziddiyatning badiiy ifodasidir. Bruks Satpen fojeasini “tabiiy tartibotga qarshi chiqqan abstrakt ratsionalizmning halokati” deb ta’riflaydi. Biroq tadqiqotchi o‘z xulosalarini asosan matnning tematik va kompozitsion qurilishi doirasida asoslash bilan cheklanib, ochiqdan-ochiq madaniy-falsafiy umumlasmalar chiqarishdan o‘zini tiyadi – bu holat aynan “Yangi tanqid” maktabining metodologik cheklovlari bilan izohlanadi [2, C.22].

Robert Penn Uorrenning 1961-yilda chop etilgan “Fuqarolar urushi merosi” nomli maqolalar to‘plami janub intellektual an’anasini tahlil etishda muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Muallif janubliklar kollektiv ongining konstitutiv asosi sifatida “mag‘lubiyat psixologiyasi”ni birinchilardan bo‘lib konseptuallashtirdi. Uorren konsepsiyasiga ko‘ra, Fuqarolar urushidagi mag‘lubiyat Janub uchun o‘ziga xos “Buyuk alib” (Great Alibi) vazifasini o‘tagan – bu ruhiy mexanizm barcha ichki nuqson va muvaffaqiyatsizliklarni tashqi omil, ya’ni harbiy yengilish hisobiga yozish, shu orqali o‘z kamchiliklari uchun javobgarlikdan qochish imkonini bergan [17, C.109]. Uorren konsepsiyasida “Amerika” obrazi murakkab ikki yoqlamalilik kasb etadi: u bir tomondan Janubni bo‘ysundirgan g‘olib kuch bo‘lib namoyon bo‘lsa, ikkinchi tomondan aynan shu g‘alaba janubliklarning o‘z ojizliklarini oqlashlari uchun qulay asosga aylanadi.

Uorrenning bu qarashi uning “Qirolning barcha odamlari” romanidagi bosh qahramon Jek Burdenning tarixiy izlanishlarida yorqin aks etadi. Jekning buyuk bobosi haqidagi arxiv tadqiqotlari bir vaqtning o‘zida ham o‘tmishni ochuvchi, ham qahramonning o‘z mas’uliyatidan qochishga urinishini ko‘rsatuvchi amaldir. Roman qahramoni shunday deydi: “Tarix – bu oldindan belgilab qo‘yilgan fojea emas. Inson o‘z tarixini o‘zi yaratadi, lekin o‘zi xohlagan sharoitda emas” [17, C.82]. Ushbu ziddiyat janubdagi “Amerika” obrazining paradoksal tayanch nuqtasi ekanligini ko‘rsatadi. Shu tariqa, “Amerika” Uorren talqinida janubiy o‘zlikni anglashning paradoksal tayanch nuqtasi sifatida gavdalanadi.

3. Madaniyatshunoslik burilishi: obrazning madaniy simptom sifatida tahlili (1970–1980-yillar). 1960-yillarning so‘ngidan e’tiboran qora tanli aholining fuqarolik huquqlari uchun kurashi hamda umuman gumanitar fanlarda kechgan “madaniyatshunoslik burilishi” janub adabiyotini o‘rganish paradigmasini tubdan o‘zgartirdi. Matnning ichki tuzilishiga yo‘naltirilgan formalistik “Yangi tanqid” yondashuvi o‘rnini badiiy asarni tarixiy, ijtimoiy va g‘oyaviy kontekst bilan uzviy bog‘liqlikda tahlil etuvchi metodologiyalar egallay boshladi. Natijada janub adabiyotidagi “Amerika” obrazi oddiy badiiy motiv maqomidan chiqarilib, jiddiy tarixiy-mafkuraviy tahlilni taqozo etadigan madaniy simptom sifatida konseptuallashtirildi.

Lyuis Simpsonning 1975-yilda chop etilgan “Qo‘ldan ketgan bog‘: janubiy adabiyotda pastoral va tarix” nomli fundamental tadqiqoti janub adabiyoti poetikasini tushunishda yangi konseptual asos yaratdi. Olim janubga xos adabiy ongning tashkil

etuvchi negizi sifatida “pastoral gunoh” tushunchasini ilgari suradi. Bu konsepsiyaga ko‘ra, janub adabiy an‘anasi “Amerika”ni ikki qarama-qarshi unsur sof tabiatga intilish va qullik haqiqatini bir-biriga chirmashgan makon sifatida tasvirlaydi. “Janub bog‘ haqidagi afsonani yaratdi, ammo bu bog‘ zanjirlar ustiga qurilganini tan olmadi” – degan formula Simpson konsepsiyasining markaziy g‘oyasini ifodalaydi[14, C,109].

Uilyam Folknerning “Ayiqlar” qissasidagi o‘rmon obrazi ushbu “pastoral gunoh”ning yorqin timsolidir. Izah Makkaslin ov qiladigan qo‘riqxonaga beg‘ubor tabiat timsoli va ayni paytda qullikdan kelgan boylik hisobiga saqlanib qolgan mulkdir. Folkner bu ziddiyatni Izahning ramziy qo‘lyozma daftarlari sahnasida ochib beradi. Qissa qahramoni o‘z mulkdorlik huquqining axloqiy asossizligini anglaganida, muallif shunday yozadi: “U yer egasi emas, balki yerning ijarachisi ekanligini anglab yetdi. Yer bilan birga meros qilib olingan gunoh uning mulkdorlik huquqini bekor qilardi” [4, C.257]. Shu tariqa, Simpson talqinida janubga xos “Amerika” obrazi pastoral idealning o‘z-o‘zini aldash mexanizmiga aylanganini fosh etadi.

Richard King 1980-yilda nashr etilgan “Janub Renessansi: Amerika Janubining madaniy uyg‘onishi, 1930–1955” nomli monografiyasida janubiy intellektual harakatni tahlil qilish uchun psixoanalitik yondashuv va madaniyatshunoslik metodologiyasini uyg‘unlashtirgan yangicha tadqiqot strategiyasini taklif etadi. Muallif konsepsiyasining markaziy g‘oyasi shundan iboratki, Janub Renessansi davri yozuvchi va mutafakkirlarining ijodiy faolligi mohiyatan “jamoaviy motam ishi”dan iborat bo‘lgan – janub jamiyati Fuqarolar urushidagi mag‘lubiyat, quldorlik tuzumining qulashi va madaniy marginallashtirish kabi jarohatlovchi tajribalarni ramziy darajada qayta ishlab, yangi madaniy o‘ziga xoslikni shakllantirishga intilgan [8, C.350].

King talqinida “Amerika” obrazi ana shu murakkab psixologik jarayonda travmatik “o‘zga” rolini bajaradi: u janubga xos o‘zlikni anglash uchun ham tahdid, ham zaruriy tayanch nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi. Folknerning “Shovqin va g‘azab” romanidagi Kventin Kompson obrazi aynan shu “jamoaviy motam”ning fojiali timsolidir. Kventin Garvardda o‘qib yurib, Janub haqidagi xotiralari qiynog‘ida yashaydi. Uning ongida shimoliy hozirgi zamon va janubiy o‘tmish doimiy dialogda bo‘lib, bu narsa uning o‘z joniga qasd qilish sahifalarida avj nuqtasiga chiqadi. Kventinning so‘nggi ichki monologi ushbu fojialarning yorqin badiiy ifodasidir: “Va men borki, men o‘zimni vaqt ichida yashayotgandek his qilmayman, mening vaqtim yo‘q.. otam aytganidek, vaqt tirik mavjudotdir”[5, C.90]. Bu monolog janubiy o‘zlikning Amerikaning chiziqli taraqqiyot g‘oyasi bilan kelisha olmaydigan fojiasini ifodalaydi.

Fred Hobsonning 1983-yilda nashr etilgan “Janub haqida so‘zla: janublik yozuvchilarning izohlash g‘azabi” nomli monografiyasi janub adabiyoti tarixshunosligida muhim bosqichni tashkil etadi. Hobson talqinida janublik yozuvchi va ziyolilarning ijodiy faoliyati zamirida o‘z mintaqasini mamlakatning qolgan qismi oldida tinimsiz tushuntirish, oqlash yoki ayblashga bo‘lgan qat‘iy intilish – “izohlash g‘azabi” yotadi[6, C.391]. Aynan

mana shu “Amerika”ga nisbatan majburiy tus olgan o‘zlikni belgilash ehtiyoji janubiy adabiy-intellektual ongning boshqa mintaqaviy adabiyotlardan tubdan farq qiluvchi konstitutiv xususiyatidir.

Flanneri O’Konnorning “Yaxshi odamni topish qiyin” hikoyasidagi buvi obrazi bu “izohlash g‘azabi”ning grotesk ifodasidir. Buvining butun xulq-atvori, janublik “olijanob xonim” qiyofasini saqlashga urinishi, oilani Tennessi o‘rniga Jorjiyaga qaytarishga majburlashi, hatto qotil bilan yuzma-yuz kelganda ham Isoning marhamati haqida gapirishi – janubiy o‘zlikni “Amerika”ga tushuntirishning parodik, ammo fojiali yakun topgan urinishidir. Hikoyaning final sahifasida u qotilga murojaat qilib: “Sen mening bolalarimdan birisan! Sen mening o‘g‘limsan!” – deydi [10, C.23]. Ushbu sahna janubliklarning “Amerika” oldidagi o‘zini oqlashga intilishi grotesk fojia darajasiga ko‘tarilgani namunasidir.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, janub adabiyotidagi “Amerika” obrazi oddiy mavzu yoki motiv emas, balki janubiy o‘zlikni anglashning butun dinamikasini harakatga keltiruvchi asosiy murojaat nuqtasi, ya’ni janubliklar o‘zligini tasdiqlash uchun doimo unga yuzlanadigan “muhim o‘zga” sifatida qaralishi lozim [6, C.3].

4. Dekonstruktiv burilish: obrazning sun’iy konstruksiya sifatida fosh etilishi (1990-yillardan keyin). 1990-yillardan e’tiboran janubiy adabiyotdagi “Amerika” obrazini tadqiq etishda fundamental paradigmatic o‘zgarish kuzatiladi. Ushbu o‘zgarishning nazariy asosini ikki yirik intellektual oqim postkolonial nazariya va feministik tanqidning Amerika adabiyotshunosligiga faol integratsiyalashuvi hamda milliy adabiyot chegaralarini yengib o‘tishga qaratilgan transmilliy tadqiqot yondashuvlarining kuchayishi tashkil etadi. Janub adabiyoti endi o‘z-o‘zidan iborat yopiq mintaqaviy fenomen sifatida emas, balki global Janub, postkolonial madaniyatlar va marginallashgan guruhlar tajribasi bilan umumiy tipologik xususiyatlarga ega bo‘lgan kengroq qiyosiy kontekstning uzviy qismi sifatida talqin etiladi.

Maykl Kreylingning 1998-yilda nashr etilgan “Janub Renessansini kashf etish” nomli monografiyasi janub adabiyoti tarixida jiddiy bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan radikal qayta ko‘rib chiqishni taklif etadi. Muallifning asosiy da’vosi shundan iboratki, adabiyotshunoslikda qat’iy o‘rnashgan “Janub Renessansi” tushunchasi aslida akademik tanqidiy fikr tomonidan sun’iy ravishda bunyod etilgan kategoriya bo‘lib, u o‘z-o‘zidan shakllangan adabiy yuksalish emas, balki muayyan mafkuraviy manfaatlarni qonuniylashtirishga qaratilgan meyor yaratish amaliyotidir. Kreyling fikricha, bu rasmiy adabiy me’yor janub jamiyatining hukmron qatlami, oq tanli plantator elitasi manfaatlariga xizmat qilgan. Uning talqinida “Amerika” obrazi janubiy adabiy qonun-qoidalarda ataylab va tizimli ravishda tahdid soluvchi kuch, “yot” va “begona” timsoli sifatida yaratilgan bo‘lib, uning asosiy vazifasi janubiy mintaqaning umummilliy Amerika loyihasidan ataylab chetlashishini qonuniylashtirishdan iborat bo‘lgan [9, C.200]. Shu tariqa, Kreyling “Amerika” obrazini ilgari qabul qilinganidek janubiy o‘zlikni anglashning “tabiiy”

komponenti sifatida emas, balki hokimiyat va mafkura munosabatlarining mahsuli bo'lgan sun'iy timsol sifatida fosh etadi.

Yudora Ueltning "Optimistning qizi" romanidagi Lah xonim obrazi Kreylingning bu nazariy qarashga qarshi turadigan alternativ identiklik modelini taklif etadi. Lah xonimning Shimol bilan Janub o'rtasidagi o'ziga xos vositachilik pozitsiyasi, uning janubiy an'analarni rad etmasdan, ammo ularni yangicha talqin qilishi meyor doirasidan chiqib ketuvchi obraz yaratish imkoniyatini ko'rsatadi. Roman qahramoni otasining o'limidan so'ng janubiy o'tmish bilan yuzlashganda, Uelti shunday yozadi: "U o'z hayotini emas, balki otasining hayotini, bu hayot unga taqdim etgan xotiralarni ko'zdan kechirardi. Xotiralar vaqt o'tgan sari o'zgaradi, ular nafaqat xiralashadi, balki yangi ma'nolar bilan to'ladi" [18, C.115].

Patrisiya Yaeger 2000-yilda nashr qilingan "Nopoklik va ishtiyoq: janub ayollari adabiyotini qayta talqin qilish, 1930–1990" nomli ilmiy to'plamda janubning adabiy tasavvuri haqidagi an'anaviy nazariyalarga gender nuqtai nazaridan muhim tuzatish kiritadi. Yaegerning asosiy ilmiy xulosasiga ko'ra, janub adabiyotida hukmronlik qiluvchi asosiy obrazlar va timsollar, shu jumladan Amerikaning milliy obrazi asosan erkaklar nigohi, erkaklarning dunyoqarashi va erkaklarning tarixiy tajribasi asosida shakllantirilgan. Ayollar janubiy o'lkalarga xos o'zlikni anglash jarayonini, ya'ni tarix, madaniyat, urush, mag'lubiyat, irqiy munosabatlar kabi masalalarni erkaklarnikidan tubdan farq qiladigan tarzda boshdan kechirganlar [19, C.324].

Zora Nial Xyorstonning "Ularning ko'zlari Xudoni kuzatardi" romanidagi Jeni Krouford obrazi bu farqni yaqqol namoyish etadi. Afroamerikalik ayol sifatida Jeni uchun "Amerika" obrazi oq tanli janub zodagonlari uchun bo'lgani kabi mavhum tahdid emas, balki irqiy va gender zulmning konkret amaliyotidir. Uning hayot yo'li – Janubning o'z ichidagi ko'p qatlamli marginallashuv xaritasini ochadi. Jeni o'z hayotiy tajribasiga tayangan holda shunday deydi: "Sevgi – bu dengizga o'xshaydi. U o'z shakliga ega bo'lgan narsadir, lekin u har bir qirg'oq bilan o'z tilida gaplashadi" [7, C.191]. Ushbu metafora janubiy o'zlikning ko'pqirraliligini va uni faqat erkaklar nigohi orqali tushunishning yetarli emasligini ko'rsatadi.

**Muhokama.** Yuqoridagi tahlil janub adabiyotida "Amerika" obrazini o'rganishning to'rt bosqichli evolyutsiyasini ko'rsatadi: apologetik (1920–1940), formalistik-akademik (1940–1960), madaniyatshunoslik (1970–1980) va dekonstruktiv (1990-yildan keyin). Har bir bosqichda obrazning ontologik maqomi o'zgarib brogan, agar apologetik bosqichda u haqiqiy tashqi tahdid sifatida ko'rilgan bo'lsa, dekonstruktiv bosqichga kelib butunlay sun'iy mafkuraviy konstruktsiya ekanligi fosh etildi.

Janubiy imagologiyaning eng muhim xususiyati uning bir millat ichidagi chegara tabiatidir. Jon Sheldon Ridning "Doimiy Janub" (1972) tadqiqotida ko'rsatilganidek, janubiy o'zlikni anglash asosan inkor orqali quriladi, janublik avvalo o'zining "amerikalik emasligini", ya'ni sanoatlashtirishning agressiv qadriyatlarini, geografik mobillik va

madaniy xotirasizlik bilan xarakterlanuvchi shimoliy tipga mansub emasligini tasdiqlash orqali o'zligini belgilaydi [13, C.135]. Holbuki, konstitutsiyaviy jihatdan u aynan o'sha Amerika fuqarosidir. Aynan shu paradox, yani o'z-o'zini inkor etishdagi mavjudiy bog'liqlik janubiy nasrda o'ziga xos dramatik keskinlikni vujudga keltiradi.

Pajoning fobiya, filiya va utopiya modellarining hech biri janub adabiyotidagi "Amerika" obrazini sof holda tushuntira olmaydi. Buning o'rniga, bu obraz uchala modelning gibrid birikmasi sifatida namoyon bo'ladi [1, C.138]. Janub madaniy diskursi bir tomondan Shimolning madaniy ekspansiyasidan qo'rquvni (fobiya), ikkinchi tomondan "haqiqiy Amerika qadriyatlari aynan Janubda saqlanib qolgan" degan idealizatsiyani (utopiya) aks ettiradi. Uchinchi tomondan esa, janubliklarning o'z o'zligini anglashi Shimol deb ataluvchi "o'zga" bilan chuqur va ajralmas aloqaga asoslanadi. Aynan mana shu ambivalentlik – qo'rquv va jalb etilishning sinxron kechishi – janubiy "Amerika" obrazini boshqa imagologik fenomenlardan farqlovchi asosiy xususiyatdir.

Imagologik tahlilning metodologik prizmasidan qaraganda, oq tanli janub adabiyotida Amerika Qo'shma Shtatlariga oid geterostereotiplar muayyan bir barqaror qoliplar tizimini tashkil etadi. "Yanki" obrazi sovuqqon, hisob-kitobga asoslangan, faqat moddiy manfaatni ko'zlovchi tip sifatida gavdalanadi. Federal hukumat mahalliy janub jamiyatiga nisbatan doimiy bosim o'tkazuvchi begona kuch sifatida talqin etiladi. Shimoldagi shahar inson o'z shaxsiyatini butunlay yo'qotadigan anonimlik makoni sifatida qaraladi. Amerikaga xos taraqqiyot g'oyasi esa inson bilan yer o'rtasidagi qadimiy rishtalarni vayron qiluvchi halokatli kuch sifatida tavsiflanadi. Ushbu salbiy geterostereotiplarga mutlaqo teskari tarzda Janubning avtostereotiplari shakllanadi: janublik inson olijanob, sharaf va nomus kabi tushunchalarga sodiq, o'z tuprog'iga mustahkam bog'langan, mag'lubiyatni ham qadr-qimmat bilan ko'taradigan insondir [13, C.85]. Shu sababli, janub adabiyotida Amerika va Janubning o'zaro qarama-qarshi stereotiplari bir-birini to'ldiruvchi dialektik tizimni tashkil qiladi. Postkolonial nuqtai nazardan qaraganda, Janubning pozitsiyasi "ichki mustamlaka" tushunchasi bilan tavsiflanishi mumkin. Fuqarolar urushidagi mag'lubiyat, qayta qurish davridagi iqtisodiy va siyosiy qaramlik, madaniy stereotiplarning tashqaridan yuklanishi – bularning barchasi mustamlakachilik tajribasi bilan tipologik o'xshashlikni namoyon etadi. Biroq klassik postkolonial vaziyatlardan farqli ravishda, bu yerda mustamlakachi davlat bilan periferiya o'rtasidagi chegara siyosiy emas, balki madaniy-ramziy xarakterga ega. Bu esa obrazni yanada murakkab va ko'p qatlamli qiladi. Imagologik yondashuv ushbu obrazning diaxronik, ya'ni tarixiy taraqqiyot dinamikasini ham ochib beradi. Amerika obrazining 1930-yillardagi agrar manifestlardan 1940-yillardagi Folknerning yetuk nasriga va nihoyat 1960–1970-yillardagi Uorren ijodiga xos bo'lgan postmodernistik refleksiyaga qadar bosqichma-bosqich o'zgartirilganligini kuzatish mumkin. Dastlabki bosqichda bu obraz nisbatan bir xil va himoyaviy tusda edi. Ammo Janub uyg'onishi rivojlanib, yetuk bosqichga o'tgan sari, asarlar o'z ichiga tanqidiy masofani, o'ziga istehzo bilan qarashni qo'shib oldi. Ijodkorlar endi o'zlari

yaratayotgan obrazlarning u qadar real emasligini, balki ular afsona va uydirma ekanligini chuqur his qila boshladilar.

**Xulosalar.** Janub adabiyotida “Amerika” milliy obrazini o‘rganish tarixi apologetik o‘zlikni anglashdan boshlanib, dekonstruktiv refleksiya gacha bo‘lgan murakkab yo‘lni bosib o‘tgan. Ushbu evolyutsiya davomida obrazning maqomi real tahdiddan mafkuraviy konstruksiyaga, oddiy badiiy motivdan murakkab madaniy simptomga aylantirildi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, janub adabiyotidagi “Amerika” obrazi fobiya, filiya va utopiya elementlarini o‘zida uyg‘unlashtirgan gibrid tuzilma bo‘lib, uning o‘zagida “ichki o‘zga” paradoksi yotadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, ushbu obrazni tadqiq etish uchun uchta metodologik paradigmani kompleks tarzda qo‘llash eng samarali yondashuv hisoblanadi. Imagologik yondashuv obrazning diskursiv qurilish mexanizmlarini, getero- va avtostereotiplar dialektikasini ochib bersa, mifokritik yondashuv uning asosida yotgan universal va lokal mifologik modellarni aniqlaydi. Postkolonial yondashuv esa obraz yaratish jarayoniga singib ketgan hokimiyat munosabatlari va ideologik kurash dinamikasini yoritadi. Ushbu uch paradigmaning sinxron qo‘llanilishi tadqiqot obyektining turli ontologik va gnoseologik qirralarini ochib berish imkonini yaratadi.

O‘zbek amerikashunosligida mazkur masalaning tizimli o‘rganilmaganligi ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning yuqori dolzarbligini ko‘rsatadi. Kelgusida Uilyam Folkner, Robert Penn Uorren, Flanneri O‘Konnor, Karson Makkallers, Zora Nial Xyorston va boshqa janub yozuvchilarining asarlarini yuqorida bayon etilgan uch yo‘nalishli metodologik prizma orqali alohida monografik tahlil qilish, shuningdek, o‘zbek adabiyotidagi mintaqaviy o‘ziga xoslik va milliy obraz masalalarini qiyosiy o‘rganish istiqbolli ilmiy vazifalar sirasiga kiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Beller M., Leerssen J. (eds.) *Imagology: The Cultural Construction and Literary Representation of National Characters*. – Amsterdam; New York: Rodopi, 2007. – 496 p.
2. Brooks C. *William Faulkner: The Yoknapatawpha Country*. – New Haven: Yale University Press, 1963. – 499 p.
3. Davidson D. *Attack on Leviathan: Regionalism and Nationalism in the United States*. – Chapel Hill: University of North Carolina Press, 1938. – 368 p.
4. Faulkner W. *The Bear // Go Down, Moses*. – New York: Random House, 1942. – 383 p.
5. Faulkner W. *The Sound and the Fury*. – New York: Vintage, 1990. – 321 p.
6. Hobson F. *Tell About the South: The Southern Rage to Explain*. – Baton Rouge: Louisiana State University Press, 1983. – 391 p.
7. Hurston Z.N. *Their Eyes Were Watching God*. – Philadelphia: J.B. Lippincott, 1937. – 286 p.
8. King R.H. *A Southern Renaissance: The Cultural Awakening of the American South, 1930–1955*. – New York: Oxford University Press, 1980. – 350 p.
9. Kreyling M. *Inventing the Southern Renaissance: The Construction of Experience*. – Baton Rouge: Louisiana State University Press, 1998. – 200 p.
10. O‘Connor F. *A Good Man Is Hard to Find // A Good Man Is Hard to Find and Other Stories*. – New York: Harcourt, Brace and Company, 1955. – 251 p.
11. Pageaux D.-H. *De l’imagerie culturelle à l’imaginaire // Précis de littérature comparée*. – Paris: PUF, 1989. – P. 133–161.

12. Pageaux D.-H. Images et imaginaires // Précis de littérature comparée / sous la dir. de P. Brunel, Y. Chevrel. – Paris: Presses Universitaires de France, 1989. – P. 133–161.
13. Reed J.S. The Enduring South: Subcultural Persistence in Mass Society. – Lexington: D.C. Heath, 1972. – 135 p.
14. Simpson L.P. The Dispossessed Garden: Pastoral and History in Southern Literature. – Athens: University of Georgia Press, 1975. – 109 p.
15. Tate A. Reactionary Essays on Poetry and Ideas. – New York: Scribner's, 1936. – 240 p.
16. Twelve Southerners. I'll Take My Stand: The South and the Agrarian Tradition. – New York: Harper & Brothers, 1930. – 359 p.
17. Warren R.P. The Legacy of the Civil War: Meditations on the Centennial. – New York: Random House, 1961. – 109 p.
18. Welty E. The Optimist's Daughter. – New York: Random House, 1972. – 208 p.
19. Yaeger P. Dirt and Desire: Reconstructing Southern Women's Writing, 1930–1990. – Chicago: University of Chicago Press, 2000. – 324 p.

